

## CHET TILLARINI HARAKATLI O'YINLAR ORQALI O'RGATISH

**Islomova Navbahor**

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Bugun dunyo shiddat bilan rivojlanib, globallashuv jarayoni tobora chuqurlashmoqda. Bunday sharoitda, tabiiyki, dunyo bilan hamnafas yashash uchun bir necha tillarda so'zlasha olish keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Ushbu maqolam aynan chet tillarini oson va tushunarli qilib o'yinlar yordamida o'rganish haqida bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** o'yin turlari, xorijiy tillar, platforma, krossvord, masofaviy ta'lim, o'yin metodlari, videodarslar.

**Аннотация:** Сегодня мир стремительно развивается, процесс глобализации углубляется. В таких условиях, конечно, умение говорить на нескольких языках открывает двери к широкому спектру возможностей жить в гармонии с миром. Эта статья о том, как легко и понятно изучать иностранные языки с помощью игр.

**Ключевые слова:** виды игр, иностранные языки, платформа, кроссворд, дистанционное обучение, игровые методы, видеоуроки.

**Annotation:** Today the world is rapidly developing and the process of globalization is deepening. In such conditions, of course, being able to speak several languages opens the door to a wide range of opportunities to live in harmony with the world. This article is about learning foreign languages in an easy and understandable way with the help of games.

**Keywords:** game types, foreign languages, platform, crossword, distance education, game methods, video lessons.

### Kirish

Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi masofaviy ta'lim bo'yicha axborot-metodik ta'minot platformasi — [test.lpa.gov.uz](http://test.lpa.gov.uz) saytini ishga tushirdi.

Mazkur portal yurtimiz bo'ylab ingliz tili ta'limi bo'yicha yagona axborot-metodik ta'minotini yaratish hamda uni tashkil etishning masofaviy shakllarini ishlab chiqish bilan birga, turli resurslar integratsiyasi asosidagi bilimlarni uzluksiz oshirish imkoniyatini beradi.

Platforma foydalanish uchun qulay va oson shaklda ishlab chiqilgan bo'lib, chet tilini o'rganishning besh darajasi bo'yicha ajratilgan. Ya'ni eng sodda, boshlang'ich bosqichdan muayyan murakkab bosqichgacha o'rganish imkoniyati mavjud. Shuningdek, test savollari ham joylashtirilgan. Bu o'rgangan bilimlarni tekshirib olish imkoniyatini beradi. Savollar 100 ballik tizim asosida baholanadi. Jami 100 balldan 15 ballgacha bo'linsa, o'rganuvchi to'liq modullarni o'zlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, ba'zi mavzularga krossvordlar ham kiritilgan. Ularni to'g'ri ishlagandan keyin ham o'rganuvchiga ma'lum miqdorda ball beriladi.

Mazkur qo'llanmaning yana bir afzalligi shundaki, internet tezligi past yoki oflayn sharoitda ham foydalanish imkoniyati mavjud. Shu sababli oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar ham bilimni oshirishda ushbu platformadan unumli foydalanishi mumkin. Masofaviy ta'lim bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi ushbu platforma olis hududda yashaydigan o'rganuvchilarning ingliz tiliga oid kompetentligini oshirish bo'yicha muhim axborot metodik ta'minot vazifasini o'taydi. Abiturenlarning eng ko'p beradigan savollaridan biri — til o'rganishda qaysi bosqichda ekani haqida. Bundan tashqari, mazkur tizim o'rganuvchiga kompyuter imkoniyatlarini o'zlashtirish, undan samarali foydalanish orqali pedagog bilan individual ishlash jarayonini muvofiqlashtiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Xususan, o'qituvchilar bilim va malakasini kompyuterlashtirilgan holda nazorat qilish, talab qilinadigan bilimlar majmuasining sifatini aniqlash muammosini hal qilish imkonini beradi.

Taqdimot marosimida [www.lpa.gov.uz](http://www.lpa.gov.uz) saytiga joylashtirilgan boshqa onlayn o'quv metodlari haqida ham ma'lumot berildi. Masalan, saytning onlayn ta'lim bo'limida Speak&Improve platformasida Sandi ismli robot bilan suhbatlashib, ingliz tili bo'yicha saboq olishingiz mumkin. Shuningdek, Intuto platformasi ham til o'rganuvchilar uchun juda qulay va oson tarzda ishlab chiqilgan. Undagi o'quv kurslari 30 kun davomida, 15-20 daqiqadan vaqt ajratish orqali bosqichma-bosqich o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, videodarslar yordamida yanada tushunarli tilda dars beriladi. Mazkur platforma bilan endi ingliz tilini o'rganish yanada oson. Buning uchun o'zingizda xohish, intilish bo'lsa bas, mehnatdan qochmasangiz, albatta, natijaga erishasiz.

O'quvchilarning chet tilida nutq boyligini va uning samaradorligini oshirish uchun darsda ta'limiy o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tajribalardan ma'lumki, o'yin bu yangi tilni o'rganishda tasavvurni kengaytiradi, shu tilda o'ylash va gapirishga imkon yaratadi. o'yin yordamida xotirada unutilayotgan so'zlarni tiklash mumkin. Kichik-kichik guruhlariga bo'linib yoki umumjamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlardan dars jarayonida darsda yoki to'garak mashg'ulotlarida foydalanish mumkin. Bu esa o'z navbatida samarasini bermasdan qolmaydi albatta. Yolg'iz o'ynab biror muammoning yechimini topganda o'quvchi haqiqiy quvonch hissini tuyadi. Jamoa o'yinlari esa muvaffaqiyatga erishishga o'rgatadi va nutqni erkinlashtiradi. Lingvistik o'yinlarda muloqot holatlarini yuzaga keltirib, o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqni o'stirish mumkin.

### **Metod va metodologiya**

Chet tilida olib boriladigan o'yinlar yoki o'yin uslubidagi mashqlarning barchasi so'zlarning sehrli olamiga yol' ochib beradi. Shuning uchun haqiqiy chet tili o'qituvchisi bo'laman degan har bir inson ijodkor bo'lmog'i kerak deb o'ylayman, ya'ni har doim bir xil o'yinlardan foydalanavermasdan o'quvchilar bilimiga moslab, ularning sozlarini har safar o'zgartirib, maqbulini tanlab, yangilarini yaratib va umuman shu o'yinlar yordamida darsni yanada qiziqarliroq va maroqliroq qilish mumkin. Bunaqa darslarda va to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar hech qachon zerikib qolmaydi va darsga To'liq qatnashadi shu bilan birga navbatdagi darsni orziqib kutadi. Quyida men darsdan bo'sh paytlarimda ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilarim uchun ishlatadigan o'yinlardan ayrimlarini misol qilib ko'rsatmoqchiman va kelajakda o'qituvchi bo'lmoqchi bo'lgan tengdoshlarimga ham tavsiya qilaman: 1. "Kungaboqar" o'yinida o'quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo'linadi. O'qituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, o'rtaga bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruh umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o'sha guruh

muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo'yadilar. Bu uslubdan o'tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda o'quvchilar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin. Navbatdagi o'yinimizda topshiriq juft- juft bo'lib bajariladi. Bunda birinchi ishtirokchi chet tilida o'z ismini aytadi, ikkinchi ishtirokchi esa o'rtog'ining ismini aytib unga o'zining ismini ilova qiladi. Masalan: Birinchi o'quvchi: My name is Jeremie. Ikkinchi o'quvchi: His name is Jeremie and my name is Nicole. va xakozo o'yin shu taxlit davom etadi. Bunday o'yinlardan o'quv yili boshida yangi tanishayotgan o'quvchilar bilan o'tkazsa bo'ladi. Shu orqali ular ingliz tilida o'zlarining hamda o'rtog'larining ismlarini bilib olishadi. What is your name? What is your hobby? o'yinida esa ishtirokchilar doira shaklida o'tiradilar. Buning uchun yumshoq kichik koptokcha kerak bo'ladi. Bunda boshlovchi koptokni ishtirokchilardan biriga irg, itadi. Koptokni olgan o'quvchi o'z ismini aytishi va o'zi haqida gapirishi kerak. So, ngra u koptokni boshqa ishtirokchiga o'tadi. Shartni bajarolmagan o'quvchi esa o'yindan chiqadi

Namuna:

1. My name is Ruslan. I like drawing pictures.
2. My name is Anne. I like reading books.
3. My name is .... I like....

Bunda sing (dance, playing football, listing to music, go to the cinema, go to the theatre, playing chess) kabilarni qo'llash mumkin. Jamoa o'yinlari. "Ha" yoki "Yo'q" so'zini ishlatmasdan o'ynaladigan bu o'yinning maqsadi o'quvchilarning tasavvur doirasini kengaytirish, ijodkorligini oshirish, savollar berishga o'rgatish. O'yinga 2 yoki undan ortiq jamoa o'zining 5 yoki 6 nafar o'yinchisi bilan qatnashadi. Jamoalardan birining birinchi ishtirokchisi o'rtaga chiqib o'zini tanishtiradi va raqib jamoalar azolari unga qisqa "Ha" yoki "Yo'q" deb javob beriladigan savollar beradilar. O'yinchi esa bu savollarga "Ha" yoki "Yo'q" so'zini ishlatmasdan, ular o'rniga boshqa javob variantlarini qo'llashi kerak. 1 ta savol - javob taxminan 30 sekund davom etadi va juda tezkorlik bilan amalga oshiriladi. O'yinchiga o'ylash uchun imkoniyat bermaslik lozim. O'yinni boshqarayotgan shaxs soatiga qarab turib javob berayotgan o'yinchining savollariga 30 sekund yoki bir minutda javob berayotganini tekshirishi kerak. Agar o'yinchi bir daqiqa davomida. "Ha" yoki "Yo'q" so'zini ishlatmasdan savollarga tezkorlik bilan javob bersa, u birinchi ball to'plagan hisoblanadi, aks holda u yutqazgan hisoblanadi. Savol bergan o'quvchiga esa bir ball qo'shiladi. To'plagan ballar har bir o'quvchi yoki jamoa tomonidan hisob- kitob qilinadi. Beriladigan savollar quyidagicha bolishi mumkin: Raqib: Sening mushuging bormi? O'yinchi: Albatta ! Raqib: Sen uni yaxshi ko'rasanmi? O'yinchi: Bo'lmasamchi! Raqib: Uning rangi qorami? O'yinchi: Butunlay Ikkinchi o'yin: Groupe adverse: Sen Toshkentga borganmisan? Joueur 2 : Albatta! Groupe adverse: Senga u joy yoqadimi? Joueur 2: Men hali unaqa joyni ko'rmaganman! Groupe adverse: Favvoralarni tomosha qildingmi? Joueur 2: Vaqtim bo'lmay qoldi!

### Tadqiqot natijasi va muhokama

Jamoa o'yinlari ancha murakkab bo'lib, o'quvchilar lug'atlardan foydalanishi mumkin. Lekin bu o'yinlarni o'tkazish uchun maxsus qo'llanmalar talab qilinmaydi. O'yin ishtirokchilariga esa qog'oz va qalam kerak bo'ladi. «BIRGALIKDA O., QIYMIZ» texnikasi. Bunda o'quv guruhi kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir kichik guruhda ekspert bo'ladi va boshqalarga o'rgatib turadi. Har bir guruhning maqsadi barcha boshqa guruhlar ishtirokchilarining mavzu bo'yicha bilimlarini to'liq o'zlashtirishdan iborat. «Birgalikda o'qiymiz» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi:

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo'lgan har xil turdagi guruhlar tuziladi.
2. Har bir guruhga bitta topshiriq beriladi.

3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.
4. Hamma yakka tartibdagi topshiriqni bajaradi.
5. Barcha guruh a'zolarining mini-ma'ruzalarini tinglanadi.

Umumiy natijani shakllantiriladi va uni taqdimotga tayyorlanadi. Bu o'yinlardan tashqari quyidagi mashq turlaridan ham foydalanilsa kutilgan natijalarga erishish mumkin:

1. Rasmlarni berilgan so'zlar asosida o'rni - o'rniga qo'ying.
2. Juft bo'lib ishleng, so'z birikmalarini dialoglarda qo'llang
3. Mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar (orzuyimdagi uy yoki kvartirani tasvirlang, chizing yoki yozing). Dialogni tinglang va sahnalashtiring.
4. Tasvirdagi kamchilikni toping. Rassom qanday xato qilganini topib unga xat yozing.
5. Fikrlarni eshiting va unga o'z munosabatingizni bildiring. Va hakozi bunday mashq turlariniyam ijodiy yondoshgan holda yana davom ettirish mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki sinfdagi bellashuv ruhi, kayfiyatini yaratish uchun o'qituvchi oyda bir marta o'yinlar natijasini e'lon qilib borishi va final musobaqasini o'tkazsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerak-ki, barcha o'yinlarda eng muhimi g'alaba emas, balki ishtirok etish demakdir. Barchaga muvaffaqiyatli dars tilayman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. T.:2012.
2. Xoshimov O', I. Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi T.: 2003 y.
3. Рогова Г.Б., Рабинович Ф.М., Сахарова Т.Э. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. Москва: Просвещение, 1991 г.
4. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
5. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
6. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
7. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
8. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
9. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.

10. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
11. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
12. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
13. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).
14. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 452-459.
15. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
16. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 3008-3020.
17. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – Т. 9. – №. 1. – С. 4943-4952.
18. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
19. Nilufar s., Elvira a. Gender specificity of pedagogical discourse //international scientific conferences with higher educational institutions. – 2023. – т. 3. – №. 08.05. – с. 187-190.
20. Gulnoza k., sadullaeva n. Linguistic features of gluttonic discourse.